

JAMIYAT RAVNAQ TOPISHI UCHUN AYOL KISHINING TUTGAN O'RNI

Suyunov Hamidulla

Ilmiy rahbar

Akbarova A'loxon Kamoljon qizi

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

Dinshunoslik yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annostatsiya: Ming yillar da'vomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ham ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish Sharq xalqlariga, jumladan, o'zbek xalqiga xos xususiyatdir. Maqolada Yangi O'zbekistonda barkamol ayollar, ularga jamiyatda e'tibor qaratish hamda jamiyatimizda ayol-qizlarni faoliyatini yanada keng rivojlantirish muammolari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ayol-qizlar, faoliyati, jamiyatda ayol kishining o'rni, ayollarni e'zozlash va qadrlash, kelajakda ayol kishi qanday darajada bo'ladi, lider ayollar.

KIRISH:

Bugun O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga, davlat boshqaruvi va jamiyatining barcha jarayonlarida ularning rolini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ya'ni, xotin-qizlarning alohida maqomi va ularga nistaban hurmatni tiklash gender tenglik sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiga aylandi. Shu bilan birga 2021-yilda O'zbekiston 2030-yilgacha mo'ljallangan Gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi. Unda boshqaruvda xotin-qizlar sonini ko'paytirish, gender nomutanosibligini kamaytirish, ta'lim olishga imkon yaratish, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiqqa qarshi kurashish nazarda tutilgan. Bugun mamlakatimizda xalqaro tashkilotlar ko'magida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ayol bu muqaddas zotdir. Bu haqida ko'plab hadislar eshitganmiz, misol uchun Saudiya Arabistonidagi Makka shahrida joylashgan jamiyki Musulmonlarga farz amali bo'lgan (Haj – Umra) safarini amalga oshirish uchun borib Kabatullohni tavof qilishadi. Shu yerdagi Sudais qori hazratlarini onalari yoshliklarida avvalo tarbiyani bergenlliklari uchun ana shunday buyuk maqomga erishganlar. Misol uchun Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarini ham Onalari tahiratsiz emizmagan ekanlar, ana shu jarayonda Quron tilovat qilgan ekanlar Din peshvolaridan biri bo'lgin deb, dunyo tan olgan olim bo'lib yetishganlar. Otasi olimning bittasi olim, Onasi olimning hammasi olim, deb bejizga aytishmagan avvalo tarbiya ona organizmidan, keyin esa irsiyatdan o'tadi. Bolani kim bo'lib yetishishi avvalo onani tanlashdan boshlanadi. Soliha ayol bo'lsa u farzandini ham tarbiyalı ilmli-bilimli savodxon qilib tarbiyalay oladi. Ayol bu muqaddas zotdir. Alloha taolo erkak kishidan ko'ra ayol kishini aqilliroq qilib yaratgan, aql-ilm borasida ayol kishi

anchagina oldinda yuradi. Misol uchun mактабда о'qiyotgan o'quvchi o'g'il va qizni farqi orasida anchagina tаfovut seziladi. Ayniqsa balog'atga yetish jarayonini qiz bola o'g'il boladan oldinroq voyaga yetishi haqida o'zimiz ko'rganmiz. Shuning uchun ham maqollar paydo bo'lган "Ayol bir qo'lida beshikni tebratsa, bir qo'lida dunyoni tebratadi". Bu maqolda to'liq qo'shilamiz. Sababi ayol kishi uy ro'zg'or ishlarini ham qiladi, farzand tarbiyasi bilan ham shug'ullanadi yana o'zining tashabbuskorligi bilan ham jamiyatga o'z hissasini qo'shadi, kimdur maktablarda dars berib o'qituvchilik qiladi. Yana kimdur oliv ta'limda dars beradi, kimdur shifokor, oshpaz ko'plab kasblarda ayollar ishlashi mumkin. Bizning mustaqil O'zbekistoniminda ayol va erkaklarning tengligi qonunlarimizda mustahkam belgilab qo'yilgan. Bola dunyoga keltirish o'lim bilan kurashish bilan bir xildir yoki ona yoki ona bu yorug' dunyoni tark etib ketib qolishi mumkin. Yangi tug'ilgan murg'ak qalb uchun chaqaloq uchun Ona allasidan boshqa barcha ovoz yoqimsiz tuyuladi. Hech ko'rganmisiz Onasi aytgan alladan qanchalar tasirlanib uxlaydi, siz olib uxlatmoqchi bo'ling sizga borishdan bosh tortadi. Chunki ona hidiga o'rgangan bola boshqa ayol hidini qabul qilmaydi.

XULOSA

Alloh taolo ayol zotini erkak kishiga qaraganda nozik xilqat qilib yaratgan, buni sababi nimada deb o'ylaysiz?, albatta oilada erkak kishi bosh bo'lsa, ayol kishi bo'yin hisoblanadi. Erkak ishda, ko'chada, yumush bilan oilasiga kamroq vaqt ajratishi mumkin. Ayol kishi eng avvalo tarbiyali, ilmli, zukko bo'lsa farzandiga ham shunday bilimlarni, tarbiyasini berishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ayol zotini biz juda yaxshi ko'ramiz u agar xafa bo'lsa biz o'zimizdan ko'ramiz, ayollar hushfel, hushmomila, irodali bo'ladi. Ayollar mo'tabar va munis hisoblanadi. Onalar oyog'i ostidadir Jannat deyilgan hadisi shariflarda.

FOYDALANILGAN MA'LUMOTLAR:

- 1) Xolmatova M., Safayeva S., Ayollar malakasi.,
- 2) Umumijtimoiy va milliy jihatlar.
- 3) Huseinova A., Fuqarolik jamiyatni va ayolla – Buxoro, 2009
- 4) Mahmudova G., G'afforova G., Jalolova G., (2020) O'zbekiston islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi. 176 b.
- 5) G'afforova G (2019) Murakkab tizimlarda ahborot generacijasining falsafiy-metodologik asoslari. Avtoreferat diss. Dokt. Filos.nauk. – 65b.